

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

**70111201 - Jismoniy tarbiya va sport
mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
magistratura mutaxassisligining**

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil «1» 08 dagi 277-sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda
Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1 Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2 Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. Kasbiy faoliyatlari tavsifi.....	5
1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari	5
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	8
3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	9
4. Fanlar katalogining tuzilishi.....	10
Bibliografik ma'lumotlar	11
Kelishuv varag'i.....	12

1. Umumiy tavsifi

70111201 - Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi bo‘yicha magistrilar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi.

Magistraturada o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi.

Magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil.

Magistratura o‘quv dasturining hajmi ta’lim shakli (kunduzgi), foydalananiladigan ta’lim texnologiyalaridan qat’iy nazar 120 kredit birligini tashkil etadi.

Bir o‘quv yili uchun magistratura ta’lim dasturining hajmi 60 kreditni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydag‘i PF-81-sod Farmoniga ko‘ra, 70111201 - Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi magistraturasida o‘qish uchun kamida B1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi **70111201 - Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrilar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

Oliy ta’lim muassasasi mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlash vakolatiga ega bo‘lganda asosiy o‘quv reja va fan dasturlarini amalga oshirish huquqiga ega deb hisoblanadi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. Kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70111201 - Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi – qo'shimcha ravishda oliy ta'lifi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish, mos ta'lif yo'naliishlari bo'yicha ta'lifni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida jarayonni loyihalashtirish va boshqarish kabi kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

umumiy o'rta, oliy ta'lif, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lif muassasalarida pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlari; ta'lif sifatini monitoring qilish bo'limlari.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari

- *ilmiy-pedagogik;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruvi;*

Mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lif jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lif muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. Kasbiy vazifalari:

70111201 - Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi bo'yicha milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-pedagogik tadqiqot faoliyatida:

Fanning zamonaviy yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniylari asosida tashkil etish, ta'lif oluvchilarining qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o'zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

ta'lif oluvchi shaxsining har tomonlama rivojlantirish jarayonini motivatsiyalash va faollashtirish, o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsiyonalligiga erishish, didaktik vositalardan samarali foydalanish;

zarur bilim, ko'nikma va malakalar, fikrlash va faoliyat ratsional usullarini shakllantirish, mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish, har bir darsni tashxis etish, prognozlash va puxta loyihalashtirish;

har bir darsning ta'limiyan vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etish va o'zlashtirishning eng yangi texnologiyalarini qo'llash, turli xildagi shakl, metod va vositalardan mos ravishda foydalanish;

jamoaviy faoliyat usullari bilan birga ta'lif oluvchilarining mustaqil faoliyatlarini tashkil etishning turli shakllaridan foydalanish, tezkor qayta aloqani

ta'minlash, nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash;

ta'lim oluvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar (vatanparvarlik, tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomllilik, mustaqillik, tolerantlik va boshqalar)ni shakllantirish;

pedagogik odob talablariga amal qilish, ta'lim oluvchilar bilan hamkorlik va ularning muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lish;

ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faoliyatiga doir ijobiy sifatlar, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni shakllantirish hamda rivojlanadirish;

ta'lim oluvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, "rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish", "o'zib ketish" darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish;

ta'lim oluvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlash maqsadida ta'lim-tarbiya shakl, metod va vositalarini hamda ta'lim texnologiyalarini oqilona tanlash va samarali qo'llash;

ta'lim oluvchilarning o'zlashtirilayotgan o'quv dasturlari bilan bog'liqlikdagi bilish imkoniyatlari, ehtiyojlari va muvaffaqiyatlarini o'rganish va olingan natijalar asosida ta'lim, tarbiya va rivojlanishning individual yo'nalishlarini loyihalashtirish;

ta'lim va tarbiya jarayonini ta'lim oluvchilarning yosh hamda psixofiziologik xususiyatlariga, shu jumladan ularning ta'limiy ehtiyojlariga mos keluvchi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish;

pedagogik jamoa, ota-onalar, davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni tashkil etish;

kasbiy o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlanadirish;

pedagoglarning kasbiy ehtiyojlari hamda imkoniyatlarini o'rganish va tahlil qilish hamda olingan natijalar asosida individual metodik qo'llab-quvvatlash tizimini loyihalashtirish;

pedagoglarning hamkorlikdagi metodik faoliyati natijalarini amalda qo'llanishini tadqiq etish, tashkil etish va baholash;

ta'limiy dasturlarni va ta'lim oluvchilarning individualligini rivojlanadirish yo'llarini loyihalashtirish;

o'quv fanlari mazmuni, nazorat shakl va metodlarini hamda didaktik-korreksion materiallarini loyihalashtirish;

o'qitish jarayoni sifatini ta'minlovchi ta'limiy muhitni loyihalashtirish;

bo'lg'usi pedagogik faoliyatni loyihalashtirish;

manbalarga asoslangan holda, innovatsion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hal etilishi lozim bo'lgan va takomillashtirish talab etiladigan yo'nalishlarga doir mavzularni aniqlay olish;

ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natjalarni olish;

zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, ta'lim-tarbiyaga doir nazariyalar, konsepsiylar, ilg'or tajribalardan foydalanish;

ilmiy muammolarni hal etishning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini egallashi;

oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish mahoratiga ega bo'lishi;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;

mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;

mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi yangi shakl, metodlar vositalarni o'zlashtirish va o'z-o'zini rivojlantirish;

elektron axborot ta'lim muhitida ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish;

elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o'qitish uchun o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olishi, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish;

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha individual suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda, umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

ta'lim-tarbiya jarayoni qatnashchilari va ijodiy jamoani boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

ilmiy va o'quv faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni takomillashtirish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyatni undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o‘z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishslashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasini egallashi;

oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish mahoratiga ega bo‘lishi;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish;

mutaxassislik fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;

mutaxassislik fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun o‘qitishning texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta’lim va ijodiy izlanish natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi yangi shakl, metodlar vositalarni o‘zlashtirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish;

elektron axborot ta’lim muhitida ta’lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish;

elektron (e-learning) va mobil (m-learning) o‘qitish uchun o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish;

uzluksiz ta’lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o‘quv-me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish **malakalariga ega bo‘lishi kerak.**

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Mutaxasislik bo‘yicha malaka amaliyot nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikma va malakalar, tadqiqotchilik kompetentsyalarini shakllantirish maqsadida o‘quv jarayonidan ajralgan holda 4 hafta amalga oshiriladi.

Magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash ITI va IPI natijalari asosida qo‘lga kiritilgan ilmiy natijalarni umumlashtitish maqsadida o‘quv jarayonidan ajralgan holda 10 hafta amalga oshiriladi.

4. Fanlar katalogining tuzilishi

T/r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi (soatda)	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	Semestri
1.00.	Majburiy fanlar		840	28	
1.01.	ITM1105	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.02.	YaO'TSTT1205	Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lif tizimidagi islohotlar	150	5	2
1.03.	JTSSIFTQ1105	Jismoniy tarbiya va sport soxasida ilmiy faoliyatni tashkil qilish	150	5	1
1.04	JTSNM1305	Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodologiyasi	150	5	3
1.05.	KM1403	Kasbiy ma'naviyat	90	3	4
1.06.	JMBTYO'JTQ140 5	Jismoniy madaniyat bakalavriat ta'lif yo'nalishida o'quv jarayonini tashkil qilish	150	5	4
	Jami:		840	28	
2.00.	Tanlov fanlar		960	32	
Kvalifikatsiya:		Pedagog-tadqiqotchi			
3.00.	Ilmiy faoliyat		1800	60	1-4
	HAMMASI		3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rghanish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ekspert xizmati, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliv ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, mактабгача та'лим, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'chov asboblari, jismoniy madaniyat, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy holat, sport, sport turlari, mashg'ulot, o'yin, musobaqa, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Kelishuv varag'i

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**


ISHLAB CHIQILGAN:

Nizomiy nomidagi Toshket davlat pedagogika universiteti


Rektor  **A.Kirgizbayev**


2024-yil «20» 07

M.O'.



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni
rivojlantirish tajqiqotlari markazi
Direktor  **M.Boltabayev**
2024-yil «01» 07



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'lifi ta'lif
vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lif markazi
Direktor  **Sh.Xudaykulov**
2024-yil «20» 07



Jizzax davlat pedagogika universiteti
Rektor  **Sh.Sharipov**
2024-yil «01» 07



Chiroq davlat pedagogika universiteti
Rektor  **G.Muxamedov**
2024-yil «20» 07



M.O'.

M.O'.